

2023-yilda sohada amalga oshirilgan ishlar hamda 2024-yilgi rejalar mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi

12/03/2024

Joriy yilning 12-mart kuni Samarqand viloyati Statistika boshqarmasida 2023-yilda sohada amalga oshirilgan ishlar hamda 2024-yilgi rejalar mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Tadbirda boshqarma rahbariyati, OAV vakillari, hamda boshqarma bo'lim boshliqlari ishtirok etishdi.



Matbuot anjumanini boshqarma boshlig'ining o'rinbosari M. Salimov ochib, Statistika sohasida 2023-yil hamda oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, o'zgarishlar to'g'risida qisqacha ma'ruza qildi.

Tadbirda viloyatning 2023-yil uchun ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha statistik tahlillar, sohalarda amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar hamda 2024-yilgi rejalar borasida so'z yuritildi.



Shuningdek, tadbir qatnashchilari uchun boshqarma matbuot F. Eshonkulov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-sonli Qarorining mazmun mohiyati to'g'risida qisqacha tushuncha berib o'tdi.

Tadbir yakunida berilgan savollarga mas'ul mutasaddilar tomonidan batafsil javoblar berildi.

